



ISSN 2010-7145

30 YIL  
1992-2022

# FARMATSEVTIKA JURNALI

Фармацевтический журнал  
Pharmaceutical journal

Pharmi.uz

2022. Том 31. №5

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

## FARMATSEVTIKA JURNALI

*Jurnalga 1992 yilda asos solingan*

*Yilda 6 marta chiqadi*

## PARMACEUTICAL JOURNAL

*Founded in 1992*

*Published 6 times a year*

**№ 5. 2022**

---

## ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

*Основан в 1992 г.*

*Выходит 6 раз в год*

Toshkent 2022

Yusupova Shaxloxon Baxodir qizi, Xaydarov Vosiljon Rasulovich, Maksudova Firuza Xurshidovna

## O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA RO'YXATGA OLINGAN TARKIBIDA FRUKTOZA-1,6-DİFOSFAT VA L-ARGININ GİDROKLORİD SAQLAGAN METABOLİK DORİ VOSİTALARİNİNG MARKETING TAHLİLİ

Toshkent Farmatsevtika instituti

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan tarkibida fruktoza-1,6-difosfat va L-arginin gidroklorid saqlagan metabolik dori vositalarining marketing tahlili Davlat Reestri (2019-2021yy) asosida olib borildi. Olib borilgan tadqiqot natijalardan kelib chiqib, metabolik dori vositalariga bo'lgan talab yildan yilga oshib borayotganini namoyon qildi. Bunday tahlillar dori vositalarning ishlab chiqishda tadqiqot ob'ektini ayni zamon ehtiyojlarini qondirish uchun to'g'ri tanlangan samarali usulidir.

**Kalit so'zlar.** Marketing izlanishlar, bozorni baholash, Davlat Reestri, metabolik vositalar, fruktoza-1,6-difosfat, L-arginin gidroklorid.

**Ishning dolzarbliji.** Bugungi kunda aholi orasida yurak qon tomir kasalliklari bilan kasallanish yildan yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, ushbu kasalliklar oqibatida yuzaga keladigan o'lim holatlari bo'yicha yurak-qon tomir kasalliklari nafaqat bizning yurtimizda, balki butun dunyoda ham birinchi o'rinda turadi. Buning asosiy sabablari tashqi muhitning o'zgarishi, aholi o'rtasida kamharakatlilik gipodinamiya, jismoniy va ruhiy zo'riqish, ratsionda hayvon yog'lari mavjud bo'lgan mahsulotlarni ko'p iste'mol qilish, chekish va spirtli ichimliklarga ruju qo'yish. Ushbu omillar yurak-qon tomir kasalliklarining aholi orasida keng tarqalishida asosiy sabab sifatida ko'rsatish mumkin [2].

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarjuda ko'p va xilma-xildir. Hozirgi kunda aholi orasida yurak ishemik kasalligi, stenokardiya, miokard infarkti va uning oqibatida kelib chiqadigan turli xil asoratlar, ya'ni surunkali yurak etishmovchiligi, yurak ritmining buzilishi, gipertoniya kasalligi va uning oqibatida kelib chiqadigan miya insulti, yurakning tug'ma nuqsonlari kabi kasalliklar ko'p uchramoqda. Bu kasalliklar dunyo bo'yicha hozirgi kunga qadar nogironlik va o'limning asosiy sababi bo'lib kelmoqda. Shu bois, yurak qon tomir kasalliklarining oldini olish, erta aniqlash va samarali davolash Respublikamizdagi mahalliy farmatsevtika korxonalarini sifatli dori vositalari bilan ta'minlash va chet mamlakatlardan kirib keluvchi dori vositalarini o'rnini bosuvchi original va generik dori vositalarini ishlab

chiqarish bo'yicha keng imkoniyatlar berilmoxda [1,3].

Ma'lumki, dori vositalarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot yo'nalishini tanlashda marketing tahlil asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Keng ma'noda marketing tadqiqotlar asosida axborotni yig'ish, qayta ishslashdan iborat bo'lib, farmatsevtika bozorining ilmiy usullar asosida tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Dori vositalarining marketing tadqiqotlar blokida asosiy yo'nalishlar assortimentni o'rganish, uning foizini hisoblash, o'sish dinamikasi, faol moddalar, farmakoterapevtik guruhlar, ishlab chiqaruvchilar va boshqalar bo'yicha tahlil qilishdir [4,8].


Ushbu izlanishlar yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini davolash bo'yicha fruktoza-1,6-difosfat va L-arginin gidroklorid saqlagan metabolik dori vositalarni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida mavjud va tibbiyot amaliyotida qo'llanilayotgan ushbu farmakoterapevtik guruhga mansub dori vositalarining assortimentini tahlil qilish orqali rejalashtirilayotgan tadqiqot ob'ektining optimalligini aniqlashga qaratilgan.

**Ishning maqsadi.** Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini davolashda qo'llanilgan fruktoza-1,6-difosfa va L-arginin gidroklorid saqlagan va ro'yxatga olingan dori vositalarning umumiyl soni, uning hududiy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan

ulushini aniqlashga qaratilgan.

**Materiallar va usullar.** Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini davolashda fruktoza -1,6-difosfat va L-arginin gidrochlorid saqlagan dori vositalarining bozorini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasida qayd etilgan dori vositalari va tibbiyot buyumlari Davlat Reestrining 2019-2021 yy bo'lgan davrdagi ma'lumotlar asosida amalga oshirildi [5,6,7].

**Tadqiqotlar natijalari va ularning muhokamasi.** Tadqiqotning dastlabki bosqichida yurak qon tomir tizimi kasalliklarini davolashda fruktoza-1,6-difosfat va L-arginin gidrochlorid saqlagan dori vositalarining mahalliy, MDH va horijiy ishlab chiqaruvchilari bo'yicha 2019-2021 yillar ma'lumotlari reestrda ro'yxatga olingan dori vositalarining umumiyligi soniga nisbatan hisoblab chiqilgan. Olingen ma'lumotlar 1-rasmda keltirilgan.



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan fruktoza-1,6 difosfat saqlagan dori vositalarining umumiyligi soniga nisbatan ulushi**

1-rasmida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, inyeksiya uchun SUV 3 savdo nomida, kapsula 1 savdo nomida, tabletka 1 ta savdo nomida (2019); inyeksiya uchun SUV 5 ta savdo nomida, dorivor o'simlik xom ashyosi 1 ta savdo nomida, tabletka 1 ta savdo nomida (2020); inyeksiya uchun SUV 1 ta savdo nomida, dorivor o'simlik xom ashyosi 1 ta savdo nomida, tabletka 1 ta savdo nomida, inyeksiya tayyorlash uchun kukun 2 ta savdo nomlarida (2021) ro'yxatdan o'tgan. Demak, 2019 yilda bu ko'rsatkich fruktoza-1,6-difosfat bo'yicha 5 ta savdo nomidagi dori vositalarni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda ularning soni 6 (2020), 9 (2021) o'rnlarga ko'paydi.


Keltirilgan natijalarga 2-rasmida ko'rsatilgan bo'lib, unda deyarli har yili

ro'yxatga olingan L-arginin gidrochlorid saqlagan dori vositalari sonining ko'payishi kuzatilmoqda. Demak, inyeksiya uchun SUV 1 ta savdo nomida (2019); Kapsula 1 ta, inyeksiya uchun SUV 6 ta, ichga qabul qilinadigan tomchilar 1 ta savdo nomlarida (2020); Inyeksiya uchun SUV 7 ta, tabletka 3 ta, kapsula 2 ta, ko'z tomchilar 1 ta savdo nomlarida (2021). Olib borilgan tadqiqotlardan ko'rinish turibdiki L-arginin gidrochlorid saqlagan dori vositalari esa 2019 yilda 5 ta savdo nomini tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda esa ularning soni 13 taga (2020), 22 ta savdo nomlarida (2021) o'rnlarga ko'paydi.


Horijiy farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilgan yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan fruktoza-1,6-difosfat

dori vositalarning 2019-2021 yillardagi qayd etilgan miqdori 24% tashkil etdi va ular: Xitoy (5% dan 6% gacha), Italiya (3% dan 8% gacha)

va Vyetnam (2%) mamlakatlaridan O'zbekiston Respublikasiga import qilingan. Ma'lumotlar 3-rasmida keltirilgan.




**2-rasm. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan L-arginin gidroxlorid saqlagan dori vositalarining umumiy soniga nisbatan ulushi**



**3-rasm. Ishlab chiqaruvchi mamlakatlar bo'yicha ro'yxatga olingan fruktoza-1,6-difosfat saqlagan dori vositalar tahlili**

L-arginin gidroxlorid saqlagan dori vositalar tahlilida foydalanish uchun mo'ljallangan dori vositalarini ishlab chiqaruvchi mamlakatlar tahlilida, amaliyotda quyidagi davlatlar aniqlandi: Xitoy, Ukraina, Hindiston, Fransiya va O'zbekiston. Ma'lumotlar 4-rasmida keltirilgan.



**4-rasm. Ishlab chiqaruvchi mamlakatlar bo'yicha olingan L-arginin gidroxlorid saqlagan dori vositalar tahlili**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 2020-yildagi O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqaruvchi mamlakatlar bo'yicha metabolik dori vositalar ro'yxatdan o'tmagan. 2019-2021yy ma'lumotlarga ko'ra, import qiluvchi mamlakat sifatida Xitoy etakchi o'rinni egallab kelmoqda. Ishlab chiqaruvchi mamlakatlar bo'yicha ro'yxatga olingan mamalakatlardan: Hindiston 6%; Fransiya 4%; Ukraina 2%; O'zbekiston 4% ni tashkil etdi.

**Xulosalar:** Olib borilgan taqiqot natijalaridan kelib chiqib, ushbu turdag'i dori

vositalarining Respublikamiz farmatsevtika bozorini to'liq qoplay olmayotganligini va mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan aniqlandi. Bu esa yangi kombinirlangan metabolik dori vositalarini ishlab chiqishda tarkibida fruktoza-1,6-difosfat moddasini ham, L-arginin gidroxlorid moddalaridan foydalangan holda texnologiyalarini ishlab chiqish va mahalliy ishlab chiqarish korxonalariga tatbiq etish maqsadga muvofiq deb belgilandi.

#### Adabiyotlar:

- Черкасова А.В., Филиппова. О.В. Анализ рынка лекарственных средств для лечения дисменореи // Фармакоэкономика. -2013. -№3.- С. 36-40.
- Нуралиева Н.Ф., Напалков Д.А. Депрессия и сердечно-сосудистые заболевания// Вестник РАМН.-2014.-№9–10.-С.21-26.
- Волчкова Н.С., Субханкулова С.Ф. Профилактика сердечно-сосудистых заболеваний// Вестник современной клинической медицины.- 2009. Том 2-вып. 4.-С.25-30.
- Садикова Р.К., Кариева Ё.С. Анализ ассортимента желчегонных лекарственных средств, зарегистрированных в Республике Узбекистан // Сборник статей по материалам XXIII международной научно-практической конференции «Инновационные подходы в современной науке».-Москва, июль 2020.-№13 (73).-С.107-112.
- Государственный Реестр лекарственных средств и медицинских изделий Республики Узбекистан.- 23 изд.- Т.: ООО «Komronpress», 2019-712 .
- Государственный Реестр лекарственных средств и медицинских изделий Республики Узбекистан.- 24 изд.- Т.: ООО «Komronpress», 2020 - 776.
- Государственный Реестр лекарственных средств, изделий медицинского назначения и медицинской техники, разрешенных к применению в медицинской практике.- 25 изд.- Т.: ООО «Komronpress», 2021 - 712
- Усмонова М.К., Максудова Ф.Х., Каримов О.У. Ўзбекистон Республикасида рўйхатга олинган ностероид яллигланишга қарши воситаларнинг маркетинг таҳлили // Инфекция, Иммунитет ва фармакология.-2022.-№4.- С.237-243.

Юсупова Шахлохон Баходир қизи, Хайдаров Восилжон Расулович, Максудова Фируза  
Хуршидовна

**МАРКЕТИНГОВЫЙ АНАЛИЗ МЕТАБОЛИЧЕСКИХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ,  
СОДЕРЖАЩИХ ФРУКТОЗО-1,6-ДИФОСФАТ И L-АРГИНИНА ГИДРОХЛОРИД,  
ЗАРЕГИСТРИРОВАННЫХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

Ташкентский фармацевтический институт

Проведен маркетинговый анализ на основании Государственного реестра (2019-2021 гг.), зарегистрированных в Республике Узбекистан метаболических препаратов с дифосфатом фруктоза-1,6 и гидрохлоридом L-аргинином. Результаты исследований показывают, что спрос на метаболические препараты растет с каждым годом. Такие анализы являются эффективным методом, если они правильно выбраны для удовлетворения текущих потребностей субъекта в разработке лекарств.

**Ключевые слова.** Маркетинговые исследования, оценка рынка, Госреестр, метаболические препараты, фруктозо-1,6-дифосфат, L-аргинина гидрохлорид.

Yusupova Shahlokhon Bakhodir qizi, Khaydarov Vosil Rasulovich, Maksudova Firuza  
Khurshidovna

**MARKETING ANALYSIS OF METABOLIC MEDICINES CONTAINING  
FRUCTOSE-1,6-DIPHOSPHATE AND L-ARGININE HYDROCHLORIDE, REGISTERED  
IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Tashkent Pharmaceutical Institute

A marketing analysis was carried out on the basis of the State Register (2019-2021) of metabolic drugs registered in the Republic of Uzbekistan with fructose-1,6 diphosphate and L-arginine hydrochloride. Research results show that the demand for metabolic drugs is growing every year. Such assays are an effective method if properly chosen to meet the subject's current drug development needs.

**Keywords.** Marketing research, market assessment, State Register, metabolic drugs, fructose 1,6-diphosphate, L-arginine hydrochloride.

## MUNDARIJA

## СОДЕРЖАНИЕ

## CONTENS

Farmatsevtika ishini  
tashkil qilish va  
iqtisodiyoti

Организация и  
экономика  
фармацевтического дела

Organization and  
economics of  
pharmaceutical  
business

Rizaev Kamal Saidakbarovich, Suyunov Nizom Davurovich  
**Travmatologiyada**  
qo'llaniladigan dori vositalari farmako-iqtisodiy tadqiqotlarining nazariy va uslubiy muammolari tahlili

Ризаев Камал Сайдакба-  
рович, Суюнов Низом  
Давурович  
**Анализ и методологи-  
ческие проблемы фарма-  
коэкономических иссле-  
дований лекарс-твенных  
средств, используемых в  
травматологии**

Rizaev Kamal Saidakba-  
rovich, Suyunov Nizom  
Davurovich  
**Analysis and methodo-  
logical problems of  
pharma-coeconomic  
studies of medicinal  
treatments used in  
traumatology**

6

Yusupova Shaxloxon Baxodir qizi, Xaydarov Vosiljon Rasulovich, Maksudova Firuza Xurshidovna  
**O'zbekiston respublikasida ro'yxatga olingan tarkibida fruktoza-1,6-difosfat va l-arginin gidroxlorid saqlagan metabolik dori vositalarining marketing tahlili**

Юсупова Шахлохон Баходир қизи, Хайдаров Восилжон Расулович, Максудова Фируза Хур-  
шидовна  
**Маркетинговый анализ метаболических лекар-  
ственных средств, со-  
держащих фруктозо-1,6-  
дифосфат и l-аргинина гидрохлорид, зареги-  
стрированных в респуб-  
лике Узбекистан**

Yusupova Shahlokhon Bakhodir qizi, Khaydarov Vosil Rasulovich, Maksudova Firuza Khurshidovna  
**Marketing analysis of metabolic medicines containing fructose-1,6-diphosphate and l-arginine hydrochloride, registered in the republic of Uzbekistan**

20

Farmakognoziya va  
botanika

Фармакогнозия и бота-  
ника

Pharmacognosy and  
Botany

Abdurasulieva Gulshad Maxsetbaevna, Duschanova Guljan Madrimbaevna, Farmanova Nodira Taxirovna, Berdimbetova Gulsara Esenovna  
**PERSICA VULGARIS MILL. barglarining anatomik tuzilishi**

Абдурасулиева Гулшад Максетбаевна, Дусчанова Гулжон Мадримбаевна, Фарманова Нодира Тахи-  
ровна, Бердимбетова Гул-  
сара Есеновна  
**Анатомическое строение  
листьев PERSICA  
VULGARIS MILL.**

Abdurasulieva Gulshad Maxsetbaevna,  
Duschanova Guljan Madrimbayevna,  
Farmanova Nodira Taxirovna, Berdimbetova Gulsara Esenovna  
**Anatomical structures  
leaves of PERSICA  
VULGARIS MILL.**

25